xoqon obrazlari bir-birini to‘ldirgan holda qadimdagi mard, jasur, el-yurt uchun fidokor bo‘lgan, oliyjanob, dono turkiy ajdodlarimiz sifatida adabiyotimiz tarixida mangu yashashiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). A.Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. “Yangi asr avlodi”, 2005, 375-bet.
(2). I.Sulton. “Bilga xoqon” romani. “Factor Books” nashriyoti, 2022, 240 bet.
(3). N.Rahmonov. Qadimiy hikmatlar. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T., 1987, 432-bet.
(4). N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. “Sano-standart”, T., 2017, 556-bet.
(5). Q.Sodiqov. O‘zbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). “Akademnashr’, Toshkent, 320-bet.

Dusanova Tozagul Rasulovna (O‘zJOKU dotsenti, f.f.f.d. PhD; tozagul.dusanova@gmail.com)

MANOQIBLAR YARATILISH TARIXI

Annotatsiya. *Maqolada Sharq adabiyotida manoqiblarning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. S.G‘aniyeva, B.Ahmedov, Q.Ergashev, Jürgen Paul va F.Olim tadqiqotlari umumlashtirilib, manoqiblarning biografik va tasavvufiy adabiyot bilan aloqadorligi yoritiladi. Maqomat, manoqib va holot tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda janriy xususiyatlari izohlanadi. Alisher Navoiy ijodida holot-manoqib an’analarining davomiyligi, tarixiy shaxslar qiyofasi va davr adabiy-madaniy muhitining aks etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, manoqibiy bayonning ma’rifiy-badiiy imkoniyatlari va Sharq mumtoz nasri taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *manoqib, maqomat, holot, tasavvufiy adabiyot, biografik nasr, Alisher Navoiy, janr taraqqiyoti.*

Дусанова Тозагул Расуловна (доцент УУЖМК, PhD по филологическим наукам; tozagul.dusanova@gmail.com)

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ МАНОКИБОВ

Аннотация. *В статье на основе научных источников анализируются становление и историческое развитие манокибов в восточной литературе. Обобщаются исследования С.Ганиевой, Б. Ахмедова, К.Эргашева, Юргена Пауля и Ф.Олим, освещается связь манокибов с биографической и суфийской литературой. Раскрываются взаимосвязь понятий «макомат», «манокиб» и «холот», а также их жанровые особенности. Анализируется преемственность традиции холот-манокибов в творчестве Алишера Навои, отражение образов исторических личностей и литературно-культурной среды эпохи. Кроме того, раскрываются просветительско-художественные возможности манокибного повествования и его значение в развитии классической восточной прозы.*

Ключевые слова: *манокиб, макомат, холот, суфийская литература, биографическая проза, Алишер Навои, развитие жанра.*

Dusanova Tozagul Rasulovna (Associate Professor at UJMCU, PhD in Philology; tozagul.dusanova@gmail.com)

THE HISTORY OF MANAQIB COMPOSITION

Annotation.*This article examines the emergence and historical development of manaqib in Eastern literature based on scholarly sources. It synthesizes the research of S.G‘aniyeva, B.Ahmedov, Q.Ergashev, Jürgen Paul, and F.Olim, highlighting the relationship between manaqib, biographical literature, and Sufi literary traditions. The article explores the interrelationship between the concepts of maqamat, manaqib, and holot, as well as their genre-specific features. It also analyzes the continuity of the holot-manaqib tradition in Alisher Navoi’s works, focusing on the portrayal of historical figures and the literary and cultural environment of his time. Furthermore, the article examines the educational and artistic potential of manaqib narratives and their significance in the development of classical Eastern prose.*

Keywords: *manaqib, maqamat, holot, Sufi literature, biographical prose, Alisher Navoi, genre development.*

Kirish. Sharq, xususan, o‘zbek adabiyotidagi nasriy asarlar janriga ko‘ra turfa xildir. Buni yuksak salohiyat sohibi Alisher Navoiy asarlari misolida kuzatsak, ayrim janrdagi asarlarning turkiy adabiyotdagi ilk namunalari hazrat qalamiga mansubligi ayonlashadi. Mutafakkirning “Vaqfiya” asarini akademik Botirxon Valixo‘jayev risola janriga mansubligini aytsa, matnshunos olim Alimulla Habibullayev so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub” janrini pandnoma deb izohlaydi.

Alisher Navoiy uch qadrdon do‘sti va ustozining yuksak axloqi va insoniy fazilatlariga bag‘ishlab uch yodnoma “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarini yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu asarlarning janri haqida taniqli olimlar o‘z fikrlarini turlicha izohlaganlar. Jumladan, Navoiy nasri yuzasidan keng tadqiqotlar olib borgan navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva “Navoiy nasri nafosati” risolasida bu asarlarni biografik-memuar asar deb tasnif qilgan[1].

Navoiy nasriy asarlari uslubini tadqiq etgan olim Q.Ergashevning ta’kidicha, Navoiyning maqsadi Jomiyning “holoti”ni yozish emas, balki Jomiy bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan “holot”ni qalamga olish bo‘lgan. Bir muqaddima, uch maqola va xotimadan iborat bo‘lgan asarning mundarijasi va mazmuni ham ana shu maqsadga bo‘ysundirilgan. Mana shu beshta qismda bayon qilingan voqealar markazida faqat Jomiy (“alar”) turmaydi, balki Navoiy (“faqir”) ham u bilan yonma-yon turadi.

Shunday qilib, asarning asosiy mazmunini Jomiy va Navoiy orasida o‘tgan “holot” tashkil etadi va aynan mana shu o‘ziga xoslik uni manoqiblardan ajratib turuvchi asosiy janriy belgilardan biridir. Mazkur “holot” asarning markazida, ham mullifning diqqat markazida turadi. Manoqiblarda esa asar markazida manoqib qaysi shayx yoki avliyoga bag‘ishlangan bo‘lsa, o‘sha shaxs turadi. Manoqiblar butunlay o‘ziga xos mazmun-mundarijaga ega asarlardir. Ularda, asosan, avliyolarning, so‘fiylarning manoqibiy hayoti haqida hikoya qilinadi. Manoqibiy hayot esa real biografiyadan farq qiladi. Manoqiblarning mualliflari real, tarixiy faktlardan ko‘ra ko‘proq rivoyatlar, naqllarga suyanadilar. Shuningdek, zikr etilayotgan avliyoning karomatlari haqidagi hikoyatlar manoqiblarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu jihatdan qaraganda “Xamsat ul-mutahayyirin”ni ham, “Holot”larni ham manoqiblar sirasiga kiritishga mutlaqo asos yo‘q, zero, Navoiy har uchala asarda ham faqat ishonchli ma’lumotlarni keltiradi. Ularda bayon qilingan voqealarning aksariyatiga Navoiyning o‘zi guvoh bo‘lgan, ishtirok etgan, mazkur asarlar asosida rivoyatlar, naqllar emas, real faktlar va hayotiy hodisalar yotadi[2].

Manoqiblarning yaratilish tarixini o‘rganishda “manoqib”ni alohida janr sifatidagina emas, balki Sharqdagi hagiografik (avliyolar hayoti va fazilatlarini tasvirlovchi) adabiyotning shakllanish jarayoni bilan qarash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Hagiografik adabiyot-diniy maqomga ega bo‘lgan “avliyolar”, yoki “muqaddas kishilar”ga bag‘ishlangan biografik janr. Sharqda avliyolar, zohidlar va so‘fiylar hayoti haqidagi asarlar, dastlab, arab tilidagi tabaqot an’anasi doirasida shakllangan. Tabaqot” muayyan toifadagi kishilarning tarjimayi holi va ulardan qolgan rivoyatlarni jamlovchi biografik to‘plam edi.

Markaziy Osiyo, Eron tarixi, tasavvuf va hagiografiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Jurgen Paul “Hagiographic Literature in Persia and Central Asia” maqolasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, fors madaniy hududidagi ilk hagiografik asarlar XI asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ular arab tilidagi tabaqat-so‘fiylarning tarjimayi holiga bag‘ishlangan biografik to‘plamlar edi. Eng muhim ilk manbalardan biri Abu Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot as-sufiya” asaridir. Shuningdek, Abu Nu’aym Isfahoniyning “Hilyat al-avliyo” asari ham dastlabki yirik manbalardan sanaladi.

Manoqib Sharq adabiyotida birdan yuzaga kelgan mustaqil janr emas, balki islomiy biografik va tasavvufiy adabiyotning dastlabki tabaqot, maqomot hamda hagiografik rivoyatlari negizida bosqichma-bosqich shakllangan. XI asrda arab tilidagi so‘fiylar tabaqoti bilan tizimlashgan bu an’ana XII–XIII asrlarda forsiy adabiyotda rivojlanib, XIII–XIV asrlardan boshlab muayyan shayx va tariqat vakillarining fazilatlari, karomatlari va ma’naviy maqomini markazga qo‘ygan manoqib asarlarida yanada aniq janriy xususiyat kasb etgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi. “Manoqiblar mumtoz adabiyotimizda bir janr sifatida namoyon bo‘ladi. Ular,asosan, shayx, so‘fiy, avliyolar, shariat va tariqat vakillari haqida yaratilib, ma’lum darajada tarixiy asosga ega. Umuman, manoqiblarning yuzaga kelishini Islomning ilk davrlari bilan bog‘lashimiz mumkin. Muhammad alayhissalom dunyodan o‘tgach, u kishining komil axloqi va hayotini sahoba va tobe’inlar rivoyat qila boshladilar. Diniy masalalarga oydinlik kiritish, sharhlash uchun dindagi sunnat amallar asosi bo‘lgan bunday rivoyatlar alohida to‘plana boshladi. Shu tarzda hadisshunoslik ilmi vujudga keldi va taraqqiy etdi. Keyinchalik esa “Shamoyili Muhammadiya”, “Tarixi Muhammadiy”, “Muhammad alayhissalom qissasi” kabi tarixiy-badiiy asarlar yaratildi. Unda payg‘ambarimizning sifatlari, martaba va fazilatlari Qur’ondagi boshqa payg‘ambarlar qissasi singari vasf etilgan. Buning davomida “Maqomati Abu Bakr Siddiq”, “Qissasi Shahzoda Hasan”, “Qissasi Shahzoda Husayn” kitoblari yuzaga keldi. Tasavvuf ta’limoti paydo bo‘lgach, tariqatdagi ko‘pgina murakkab holatlarni izohlash zarurati tug‘ildi. Ma’lum bir amaliy bos-

---

[1]Ғаниева С. Алишер Навоий насри ҳақида. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. “Tamaddun”,1-ж,240-бет.
[2]Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. ф.ф.д. (DSc). Дисс., Т., 2022, 64–65-бетлар.
[3] Jürgen Paul. “Hagiographic Literature in Persia and Central Asia”. Encyclopaedia Iranica. 2002, vol. XI, Fasc. 5, pp. 536–539.

qichni o‘tagan xalq qissachiligida yangi bir xarakterdagi, yo‘nalishdagi asarlar yaratish uchun zamin ham, ehtiyoj ham bor edi. Shu asnoda, valiylar hayotidan ibratli lavhalar manqaba etila boshlagan”.[1]

“Manoqiblar bizning davrimizgacha ko‘p miqdorda yetib kelgan va ularni barcha qo‘lyozma xazinalardan topish mumkin…avliyolarning manoqiblari turli-tuman hujjatli ma’lumotlarga boy bo‘lib, shubhasiz, feodal jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotini o‘rganishda muhim tarixiy manba bo‘la oladi”,[2] Olim Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan o‘ttizdan ortiq manoqiblar nomini keltiradi va “Maqomati xoja Ahror” , “Rashahot ayn ul-hayot”, “Jome’ ul-maqomati maxdumi A’zam”, “Ravzat ar-rizvon va hadiqat al-g‘ilmon”, “Nasimat ul-quds min xadoyiq ul-uns” kabi manoqiblar haqida keng to‘xtalib o‘tadi.

Tahlil va natijalar. Holot ba’zan manoqib-holotlar mashhur siymolar (mutasavvuf, shoir, adib) vafotidan so‘ng ularning hayoti, fazilatlariga bag‘ishlanib yozilgan asardir. Holotlarni tazkiraning ma’lum zabardast siymolarga bag‘ishlangan xili desa bo‘ladi. Navoiyning ustozi va piri Abdurahmon Jomiy haqidagi “Xamsat ul-mutahayyirin”, otasidek qadrdoni Sayyid Hasan Ardasherga bag‘ishlangan “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, do‘sti va hamrozi Pahlavon Muhammad Kushtigir to‘g‘risidagi “Holoti Pahlavon Muhammad” kabilar ana shunday asarlar (holot-manoqib) sirasiga kiradi.

Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari ayrim tadqiqotlarda manoqiblar qatorida sanalsa, ayrim manbalarda memuar – yodnomalar sirasiga kiritilgan. Bu ikkala asar nomida holot so‘zi keltirilganligi uchun ushbu so‘zning istilohiga ham to‘xtalib o‘tish joiz.

Holat so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, yuzaga kelgan yoki mavjud bo‘lgan vaziyat, ahvol va turish ma’nolarini bildiradi, lug‘atda holatning ko‘pligi – “holatlar”, “ahvol”; adabiy janr sifatida ma’lum bir mo‘tabar zot – ilm va adabda mumtoz so‘fiyning hayoti va fazilatlari haqida hikoya qiluvchi asarni anglatadi. Navoiyning “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi asarlarda ham bir kishining hayotini aks ettirish bosh maqsad qilib qo‘yilsa-da, ma’lum bir jamiyatdagi umumiy ahvol, shart-sharoitlar, o‘sha davrga xos bo‘lgan chizgilar, shuningdek, muallif hayoti bilan bog‘liq voqeliklar ham aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu asarlarda Sulton Husayn Boyqaro davridagi Xuroson, xususan, Hirotning holati yorqin real ma’lumotlar asosida tasvirlangan.

Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asaridan oldin ham “holot” (ahvol, tarjimai hol, biografiya) tushunchasi Sharq adabiyoti va tasavvufiy manoqib adabiyotida mavjud bo‘lgan. Biroq asar nomi aynan “Holoti falonchi” shaklida bo‘lgan namunalar juda kam uchraydi. Navoiy bu nomlash usulini mustaqil janriy shakl sifatida rivojlantirgan adiblardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, “holot” mashhur shaxslarning hayoti va fazilatlariga bag‘ishlangan biografik-manoqibiy asar turi bo‘lib, Navoiy yaratgan “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, keyinchalik, “Holoti Pahlavon Muhammad” ushbu janrning turkiy adabiyotdagi eng mukammal namunalari sanaladi. Ma’lumki, fors-tojik va arab manbalarida ayrim avliyolar haqida yozilgan “ahvol”, “holot”, “manoqib” tipidagi asarlar bo‘lgan, lekin o‘zbek adabiyotida va turkiy nasrda Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asari eng qadimgi va mashhur “Holot” nomli asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

“O‘tmishda manoqib-holotda tasvirlanayotgan shaxs diniy-tasavvufiy martabaga ega bo‘lishi shart qilib qo‘yilgan. Navoiy ham Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad faqatgina ustozi yoki yaqin kishisi emas, balki o‘z davrining yetuk so‘fiylari va qaysidir ma’noda o‘zining pirlari bo‘lgani uchun ular haqida alohida asar bitadi. Shu tariqa, bu asarlarda diniy-tasavvufiy zotlar siymosi yaratiladi. Bu esa “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad”ni, avvalo, manoqib va holot janriga taalluqli asarlar, deb hisoblash uchun to‘la asos beradi. Biroq Navoiy qalamiga mansub manoqib-holot ruhidagi bu uch asarning G‘arb va Sharq adabiyotida uchraydigan boshqa agiografik asarlardan keskin farq qiladigan xususiyatlari ham bor. Birinchidan, G‘arbda ham, Sharqda ham agiografik asarlarning aksariyati qo‘ldan qo‘lga ko‘chirilib, yo‘l-yo‘lakay tahrir qilinib, o‘zgarib boravergan. Aniqrog‘i, bu kabi asarlarda muallifning nuqtai nazari emas, balki madh etilayotgan qahramonning hayoti birlamchi ahamiyat kasb etgan. Ikkinchidan, ta’rif etilayotgan tarixiy shaxsni ideallashtirish asosiy maqsadga aylangani uchun ularda mubolag‘aga katta erk berilgan. Shu sababli bunday asarlarda real voqealar turli to‘qima rivoyatlar bilan qo‘shilib ketgan.

Navoiy manoqib-holotlarida esa buning tamoman aksini ko‘ramiz. Birinchidan, muallif faqat o‘zi ko‘rgan-bilgan, shohid bo‘lgan, to‘la ishongan voqealarnigina qalamga oladi. Ikkinchidan, qahramon bu

---

[1] Ҳамроева Д. Манақиб ва тарихий ҳақиқат. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2003, 4-сон, 46-бет.

[2] Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент, 1994. 256–269-бетлар.

yerda bevosita muallifning nigohi, shaxsiy nuqtayi nazari, hissiy-ekspressiv munosabati orqali yoritiladi. Bunda asar qahramoni emas, balki uning muallifi asosiy maqsadda turadi".[1]

Alisher Navoiygacha tasavvufiy va biografik adabiyotda "holot" tushunchasi mavjud bo'lsa-da, turkiy adabiyotda muayyan shaxs hayotiga bag'ishlangan va nomida "Holoti" so'zi qo'llangan asarlar deyarli uchramaydi. Shu jihatdan, "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" nafaqat Navoiy memuar-biografik nasrining, balki turkiy adabiyotdagi "holot" janrining ham dastlabki va mukammal namunalaridan biri deyish mumkin.

Navoiyning manoqib-holotlari XV asrning adabiy, madaniy va ma'naviy hayotida katta mavqe egallagan siymolarga bag'ishlanganligi, o'zbek va tojik adabiy aloqalari tarixini o'rganishga katta hissa qo'shganligi, muallifning (Alisher Navoiyning) tarjimayi holi, ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlarning mavjudligi jihatidan muhim ilmiy-adabiy ahamiyatga ega. Alisher Navoiy holot-manoqiblarining tuzilishi, bayon uslubi o'sha davr nasrining qonun-qoidalari, badiiylik shart-sharoitlariga mos bo'lib, ularda saj' san'ati, she'riy parchalar, hikoyot va rivoyatlar ham o'rinli ishlatilgan. Asarlarda nomlari zikr etilgan Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad Kushtigir kabi tarixiy siymolar badiiylik tamoyili asosida qalamga olinganliklari tufayli tarixiy-badiiy obraz tarzida ko'zga tashlanib turadilar. Mazkur siymolarning ruhiy holati, odamlar bilan munosabati, xatti-harakati, dono so'z va pand-nasihatlari turli xildagi hikoya va rivoyatlar vositasida bayon qilinadi. Natijada ana shu jarayonda bu tarixiy shaxslarning nihoyatda jozibali badiiy siymolari gavdalanadi.

Mazkur holotlarda faqat yuqorida nomlari tilga olingan tarixiy shaxslargina emas, balki ular bilan yonma-yon yashagan ko'pgina shaxslar ham tasvirlangan. Masalan, "Xamsat ul-mutahayyirin"da Abdurahmon Jomiy bilan bir qatorda Shayxim Suhayliy, Darvesh hoji Irqband (bog'bon), Mutahhari Udiy (xonanda va sozanda), Sayyid G'iyos (bog'bon), Mahmud Habib (devona), Mavlono Abdussamad (xattot), Mavlono Sog'ariy, Xoja Dehdor va boshqalar. Bunday hodisani boshqa holotlarda ham kuzatish mumkin. Shunday qilib, Navoiyning holot-manoqiblari asrining mashhur siymolari buyuk fazilatlarini navoiyyona samimiyat va mahorat bilan tasvirlagan nodir yodgorliklaridir.

Xulosa va takliflar. Ko'rinadiki, manoqibiy holat faqat "karomat" yoki g'ayrioddiy voqea degani emas. Kengroq adabiy talqinda u muayyan shaxsning fazilatini ochib beradigan, uning ruhiy-ma'naviy maqomini namoyon qiladigan ibratli holatdir. Shuning uchun Navoiy nasrida manoqibiy holatlarni ma'rifiy mazmunni konkretlashtiruvchi badiiy vosita sifatida o'rganish mumkin. Ilmiy nuqtayi nazardan eng qiziqarli jihat shundaki, Navoiy manoqibiy holatlarni oddiy biografik ma'lumot sifatida emas, balki ma'naviy qadriyatlarni real shaxslar obrazi orqali konkretlashtirish vositasi sifatida qo'llaydi.

Alisher Navoiy manoqib-holot an'analarini ijodiy davom ettirib, ularni o'zbek mumtoz nasrining mazmuniy va badiiy imkoniyatlari bilan boyitdi. U "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" va "Xamsat ul-mutahayyirin" asarlarida zamondoshlarining ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari, ijodiy faoliyati va o'zaro munosabatlarini shaxsiy kuzatishlari, xotiralari hamda tarixiy ma'lumotlar asosida yoritdi. Natijada an'anaviy manoqib-holot tasviriga hayotiy kuzatish va tarixiy-biografik dalillar uyg'unlashib, turkiy tildagi biografik nasrning o'ziga xos namunalari yaratildi. Shu tariqa, Navoiy ushbu an'anani ijodiy takomillashtirib, o'zbek mumtoz nasri taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 5-j, "Хамсат ул-мутаҳаййирин", Т., Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011, 860-бет.

(2). Ғаниева С. Алишер Навоий насри ҳақида. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. "Tamaddun", 1-ж., 240-бет.

.(3). Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. ф.ф.д. (DSc). Дисс., Т., 2022, 64–65-бетлар.

(4). Jürgen Paul. "Hagiographic Literature in Persia and Central Asia". Encyclopaedia Iranica. 2002, vol. XI, Fasc. 5, pp. 536–539.

(5). Ҳамроева Д. Манoқиб ва тарихий ҳақиқат. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 2003, 4-сон, 46-бет.

(6). Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент, 1994, 256–269-бетлар.

(7). Олимов Ф. Алишер Навоий манoқиб–ҳолотларида бадиий-публисистик маҳорат. Ф.ф.д. автореферати, Т., 2023, 18-бет.

[1] Олимов Ф. Алишер Навоий манoқиб –ҳолотларида бадиий-публисистик маҳорат. Ф.ф.д. автореферати, Т., 2023, 18-бет.